

 <https://doi.org/10.63241/20261S10akhv>

UO'T:632.3 632.4

KUZGI BUG'DOYDA SARIQ VA QO'NG'IR ZANG, UN-SHUDRING KASALLIGIGA POUNCE PLUS SC SUS.K PREPARATINING BIOLOGIK SAMARADORLIGI

Djumaniyazov Mardon Allanazarovich 
direktor

Jumamuratov Ulug'bek G'aniybay o'g'li 
katta ilmiy xodim

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot institutining
Qoraqalpog'iston Respublikasi mintaqaviy filiali

Annotatsiya. Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida kuzgi bug'doyda uchraydigan sariq va qo'ng'ir zang kasalliklariga qarshi Pounce Plus SC sus.k preparatining biologik samaradorligini o'rganish bo'yicha so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Sariq va qo'ng'ir zang kasalliklariga qarshi fungitsidlarni sinash.

Аннотация. Представлены результаты последних исследований биологической эффективности препарата «Пунц Плюс СК сус.к» против желтой и бурой ржавчины озимой пшеницы в условиях Республики Каракалпакстан.

Ключевые слова: Испытание фунгицидов против желтой и бурой ржавчины.

Abstract. The results of recent studies on the biological effectiveness of the Pounce Plus SC sus.k preparation against yellow and brown rust diseases of winter wheat in the conditions of the Republic of Karakalpakstan are presented.

Keywords: Testing of fungicides against yellow and brown rust diseases.

KIRISH

Boshqoli don va don-dukkakli ekinlari mahsulotlari dunyo, shu jumladan, mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli sohani rivojlantirishga investitsiya mablag'larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida boshqoli don va don-dukkakli ekinlar mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi va

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

ularning yillik eksporti hajmi ham oshib bormoqda. O'zbekistonda bug'doy o'simligida kasallik qo'zg'atuvchi zamburug'larning 26 ta turi qayd etilgan. Bu kasalliklardan sariq zang kasalligining xavfi yuqori hisoblanadi. Zang kasalligining tez tarqalishi va rivojlanishi uchun 8-15 daraja iliq havo eng qulay sharoit hisoblanadi. Sariq zang kasalligining yangi irqlari paydo bo'lishi, ayrim yillarda zang kasalligining ommaviy ko'payishiga sabab bo'lmoqda, bunday kuchli rivojlangan yillarda hosildorlik 50-60% gacha kamayishi kuzatilgan. Bug'doyning Markaziy Osiyo mintaqasida eng asosiy biotik stress omili bo'lib, ushbu kasallikga qarshi butun mintaqada ayniqsa kuzgi bug'doy dalalarida o'z vaqtida fungitsidlar bilan kurash choralarini olib bormasa hosildorlikning katta qismidan ayrilishimiz mumkin. Qisqacha sharhdan ko'rinib turibdiki, zang kasalligi muhim ahamiyatga ega va u bilan kurashish uchun o'z vaqtida kurash choralarini olib borish kerak.

MATERIALLAR VA USULLAR

Tajriba sinovlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus tumanidagi «Jumanazar-Ayteke» fermer xo'jaligida bug'doy dalalari sharoitida o'tkazildi. Pounce Plus SC sus.k fungitsidini biologik samaradorligini aniqlash bo'yicha dala sinovlari Dala tajribalari Davlat Kimyo komissiyasi (1994 y), tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyat asosida olib borildi.

Kasallikning tarqalishi quyidagi formula asosida aniqlandi:

$$P = \frac{n \cdot 100}{N}$$

P: kasallikning tarqalishi.

n: kasallangan o'simliklar soni (dona);

N: umumiy o'simliklar soni (dona).

Kasallikning bargni zararlash darajasi quyidagi shkala bo'yicha hisoblanadi:

- 0 – sog'lom barglar;
- 1 ball – barg yuzasining 10% gacha qismi zararlangan;
- 2 ball – barg yuzasining 11–25% qismi zararlangan;
- 3 ball – barg yuzasining 26–50% qismi zararlangan;
- 4 ball – barg yuzasining 50% dan ortiq qismi zararlangan.

$$R = \frac{\sum(a \cdot b)}{N \cdot K} \cdot 100$$

R-kasallikning rivojlanishi

$\sum(a \cdot b)$: o'simliklar soni (a) va kasallik darajasi ballining (b) ko'paytmasi;

N: kasal o'simliklar soni (dona);

K: shkaladagi yeng yuqori ball.

$$Bs = \frac{Rn - Rt}{Rn} \cdot 100$$

Bs-Biologik samaradorlik.

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Rn: nazorat variantida kasallik rivojlanishi (%);

Rt: tajriba variantida kasallik rivojlanishi (%).

Tajribalar tizimi

№	Tajriba variantlar	Norma rasxod l/ga
1.	Pounce Plus SC sus.k.	0,4
2.	Azaksifen Bek 32% sus.k.	0,5
3.	Nazorat	

NATIJALAR VA MUNOZARA

Sariq zang kasalligiga qarshi samaradorlik Pounce Plus SC sus.k. (0,4 l/ga): Kasallik tarqalishi 5,6%, rivojlanishi 0,9%, biologik samaradorligi 90,8% ni tashkil etdi. Azaksifen Bek 32% sus.k. (0,5 l/ga): Kasallik tarqalishi 6,2%, rivojlanishi 1,1%, biologik samaradorligi 88,7% ni tashkil etdi. Nazorat varianti: Kasallik tarqalishi 18,9%, rivojlanishi 9,8% ni tashkil etdi.

Qo'ng'ir zang kasalligiga qarshi samaradorlik Pounce Plus SC sus.k. (0,4 l/ga): Kasallik tarqalishi 5,4%, rivojlanishi 0,8%, biologik samaradorligi 90,6% ni tashkil etdi. Azaksifen Bek 32% sus.k. (0,5 l/ga): Kasallik tarqalishi 5,7%, rivojlanishi 1,1%, biologik samaradorligi 87,2% ni tashkil etdi. Nazorat varianti: Kasallik tarqalishi 19,7%, rivojlanishi 8,6% ni tashkil etdi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida bug'doy ekinida sariq zang kasalligiga Pounce Plus SC sus.k. (0,4 l/ga) sarf me'yorda qo'llanilganda 90,8% biologik samaradorlikni tashkil etdi. Qo'ng'ir zang kasalligiga Pounce Plus SC sus.k. (0,4 l/ga) sarf me'yorda qo'llanilganda 90,6% biologik samaradorlikni tashkil etdi.

2. Pounce Plus SC sus.k. (0,4 l/ga) sarf me'yorda fungitsid qo'llanilganda ekinga fitotoksik ta'sir ko'rsatmadi.

ADABIYOTLAR

1. To'raqulov X.S., Baboev S.K., Gulmurodov R.A. Bug'doyning zang kasalliklari. Monografiya. "Navro'z" nashriyoti, Toshkent-2015 y.

2. Hasanov B.O., Ochilov R.O. Bug'doyning zang kasalliklarini aniqlash, hisobga olish va ularga qarshi kurash chora larini qo'llash bo'yicha tavsiyalar-Toshkent, 2010 y.

3. Amanov A.A., Siddiqov R.E. "Bug'doyning sariq, qo'ng'ir va qorakuya kasalliklari hamda ularga qarshi kurash omil lari" // "Paxtachilik va donchilik" to'plami. -2000 y.

4. Amanov A. "Ilmiy va amaliy izlanishlar" // Toshkent.: "Tafakkur qanoti" kitobi. -2019 y

5. Hasanov B.O., Ochilov R.O. Bug'doyning zang kasalliklarini aniqlash, hisobga olish va ularga qarshi kurash chora larini qo'llash bo'yicha tavsiyalar.«Ruta-Print» – Toshkent, 2010 y.